

MAKTABDA BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK HOLATLARINI OLDINI OLIISH YUZASIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN PSIXOLOGIK CHIRA-TADBIRLAR

Xidirova Aziza Abdullayevna

Samarqand viloyati Paxtachi tumani

7-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktab muhitida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini oldini olishning psixologik chora-tadbirlari, ularning samaradorligi hamda bu jarayonda pedagoglar, psixolog va ota-onalarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom muhitni shakllantirish yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, maktab, o‘quvchi, psixologik yordam, profilaktika, muloqot, xavfsiz muhit, tarbiya, hamkorlik, rivojlanish

KIRISH

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik – bu bola jismoniy, ruhiy, ijtimoiy yoki jinsiy zarar ko‘rishiga olib keladigan har qanday harakat yoki beparvolikdir. Bu zo‘ravonlik turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Jismoniy zo‘ravonlik – bolani urish, tepish, qattiq ushlab qo‘yish yoki boshqa tan jarohatiga olib keladigan harakatlar.

Ruhiy (psixologik) zo‘ravonlik – tahqirlash, haqoratlash, qo‘rqitish, e‘tiborsizlik qilish yoki doimiy tanqid orqali bolaning ruhiy holatini buzish.

Ijtimoiy zo‘ravonlik – bolani boshqa bolalardan ajratish, yolg‘iz qolishga majburlash, maktab yoki jamiyatdagi ijtimoiy imkoniyatlardan mahrum qilish.

Jinsiy zo‘ravonlik – bolani jinsiy ekspluatatsiya qilish, jinsiy tajovuz qilish yoki nojo‘ya jinsiy harakatlarga majburlash.

Umuman olganda, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik – bu ularning xavfsizligi, salomatligi, shaxsiy huquqlari va rivojlanishiga tahdid soladigan barcha harakatlardir.

Maktab muhitida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zo‘ravonlik nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy zarar ham keltiradi. Bu holat o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi, uning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini susaytiradi va ruhiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu sababli maktablarda zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan psixologik choratadbirlarni amalga oshirish muhimdir. Eng avvalo, o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom va do‘stona muhitni shakllantirish zarur. Bu esa o‘zaro hurmat, tushunish va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Maktab psixologi bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. U o‘quvchilar bilan individual va guruhli suhbatlar o‘tkazadi, ularning ruhiy holatini o‘rganadi va muammolarni erta aniqlashga harakat qiladi. Psixologik treninglar orqali o‘quvchilarda agressiyani boshqarish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va empatiya hissini shakllantirish mumkin.

Profilaktik ishlar ham katta ahamiyatga ega. Sinf soatlari, targ‘ibot tadbirlari va ma‘naviy-ma‘rifiy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarga zo‘ravonlikning salbiy oqibatlari tushuntiriladi. Bu ularning ongida zo‘ravonlikka nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi.

O‘qituvchilarning roli ham muhimdir. Ular o‘quvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lgani uchun zo‘ravonlik holatlarini birinchi bo‘lib sezishi mumkin. O‘qituvchi har bir o‘quvchiga individual yondashishi, uni tushunishi va qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Ota-onalar bilan hamkorlik ham bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar farzandining xulq-atvoridagi o‘zgarishlarga e‘tibor berishi, uning muammolarini tinglashi va maktab bilan aloqada bo‘lishi kerak.

Maktabda ishonchli muhit yaratish muhimdir. O‘quvchi muammoga duch kelganda, kimga murojaat qilishni bilishi va o‘zini xavfsiz his qilishi zarur. Bu esa zo‘ravonlik holatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. O‘quvchilarni muammolarni zo‘ravonliksiz hal qilishga o‘rgatish ularning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda «bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabat» tushunchasi avvalo qonuniy asosga tayanadi. O‘zR qonunchiligiga ko‘ra, zulm deganda ehtiyotsiz va loqayd munosabatda bo‘lish nazarda tutilmaydi. Zulm va loqayd munosabat quyidagicha ta’riflanadi: Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko‘makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy dahlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta’sir ko‘rsatishdir. Mazkur ta’rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko‘rinishlari ajratib ko‘rsatiladi.

Bolaga loqayd munosabatda bo‘lish – ota-onalar yoki ularni o‘rnini bosuvchi kishilar, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan bolalarni boqish, tarbiyalash, sog‘lom turmush kechirish sharoitlarini yaratish, to‘la ma’lumot olish va shu kabilarni ta’minlashga doir o‘z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasliklari.

Bolalarga nisbatan noloyiq munosabat turlari

Jismoniy zo‘ravonlik – shafqatsizlik va bolaga og‘riq keltiruvchi hamda uning sog‘lig‘i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo‘lmagan maqsadga yo‘naltirilgan boshqa xatti-harakatlar:

- ✓ bolaga yetkazilgan har qanday tana jarohati yoki og‘riq berish (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bolani bo‘g‘ish yoki cho‘ktirish)
- ✓ bolaga tana jarohati yetkazilishiga qarshilik qilmaslik
- ✓ bolani har qanday jismoniy jazolash – tarsaki, kaltaklash, tahqirlash
- ✓ bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash
- ✓ Jinsiy zo‘ravonlik – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish. Bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch, ayyorlik va ishonchdan foydalanish.
- ✓ bola bilan har qanday jinsiy aloqa yoki munosabatlar (kuch ishlatgan holda yoki ishlatmasdan)
- ✓ bolani jinsiy aloqaga jalb qiluvchi har qanday xulq-atvor
- ✓ seksual tavsifdagi har qanday xatti-harakatlar – o‘yinlar, suhbatlar, foto va video tasvirlarni tomosha qilish

✓ seksual g‘arazgo‘ylik – bolani seksual maqsadda sotish, pornografik foto va videotasvirlardan foydalanish

✓ fohishabozlikka jalb qilish

Emotsional (ruhiy) zo‘ravonlik – bolaga lozim darajada e‘tibor bermaslik, g‘amxo‘rlik qilmaslik, qo‘llab-quvvatlamaslik, hissiy yaqinlik ko‘rsatmaslik. Bola doimiy ravishda e‘tibor va mehrning yetishmasligini his qilib turadi, tahdid va kamsitishlarga duchor bo‘ladi va bu o‘z qadr-qimmatini bilmaslik va o‘ziga ishonchsizlikni oshishiga olib keladi, bularga:

✓ yolg‘on, tahdid, qo‘rqitish, kamsitish, haqorat qilish, so‘kish;

✓ boladan voz kechish, izolyasiya

✓ noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash

✓ bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishni asossiz talab qilish □ bolaning me‘yorida rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi ortiqcha homiylik □ kattalarning o‘z va‘dalarini bajarmasligi, bolada ishonch tuyg‘usining buzilishi.

Ehtiyotsiz munosabat (befarqlik) – bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatilishga olib keluvchi hayotiy ehtiyojlarni qondirilmassligi:

✓ e‘tiborsiz, qarovsiz qoldirish, xavf ostida qoldirish;

✓ bola ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko‘makka, ta‘limga, muloqotga, rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilmassligi);

✓ hissiy yaqinlikning yo‘qligi (undan voz kechish)

✓ mavjud tahdiddan bolani himoya qila olmaslik (istamaslik)

Ekspluatatsiya – boladan o‘z manfaati yo‘lida foydalanish – og‘ir mehnat, seksual foydalanish, trafik (foydalanish maqsadida bolalarni olib chiqib ketish, sotish).

Bola bilan shafqatsiz munosabatning to‘rtta turini ajratadilar:

✓ Shafqatsiz jismoniy munosabat

✓ Jinsiy zo‘ravonlik

✓ Bola ehtiyojlariga e‘tiborsizlik

✓ Psixologik zo‘ravonlik

Shafqatsiz jismoniy munosabat – bolaga yetkazilgan tasodifiy bo‘lmagan har qanday tan jarohati.

Bolalar ustidan jinsiy zo‘ravonlik – bola yoki o‘smirdan shaxsiy jinsiy lazzat olish uchun foydalanish.

Bola ehtiyojlariga e‘tiborsizlik – ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning 18 yoshga to‘lmagan bolaning asosiy ehtiyojlarini ta‘minlashga surunkali noqodirligi.

Psixologik zo‘ravonlik, o‘z navbatida, ikki turda bo‘lishi ham mumkin:

✓ psixologik beparvolik – bu ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning bolaga zaruriy ko‘mak, e‘tibor, psixologik himoyani ta‘minlashga qodir emasliklari, unga mehrning yo‘qligi.

✓ psixologik shafqatsiz muomala – kattalar tomonidan bolani tahqirlash, uni kamsitish, xaqoratlash, mazax qilish maqsadida sodir etiladigan surunkali harakat.

Dastlab bolaga zo‘ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarning psixologik og‘ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko‘chirildi, bundan xatar omili ota-onaning bolaga zo‘ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. So‘ng zo‘ravonlikni ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilgan interfaol ijtimoiy modeli orqali sharhlashdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi. Psixologik chora-tadbirlar, profilaktik ishlar va hamkorlik orqali sog‘lom, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among spupils. *Интернаука*, (11-2), 50-51.

2. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*, (5), 8.
3. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
4. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor.
5. Abdurahmonova, M. (2020). World practical experience of developing a schooloriented sphere of professional activity of social work. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1181-1186.